



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 09 | pp. 331-336 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

MAHSULOT TAQSIMOTIGA OID BITIM DOIRASIDAGI FAOLIYATNI SOLIQ TORTISHNING O'ZIGA XOS JIHLTLARI



Kudbiyev Davlatbay

Farg'ona politexnika instituti,

“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası professorı i.f.d., e-mail:

davlatbay.kudbiyev@ferpi.uz

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasining chet el investitsiyalarining jalb etishda mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari o'rganildi, neft-gaz sohasiga misolida. Soliq sohasidagi oxirgi o'zgarishlarning respublika investitsion muhitiga ijobiy ta'siri isbotlandi va e'tirof etildi. Mahsulot taqsimotiga oid bitim imzolash shartlari va vujudga keladigan majburiyatlar tahlil etilib asosli tavsiya va takliflar berildi.

Kalit so'zlar: soliqlar; soliq majburiyati; chet el investitsiyalari; mahsulot taqsimotiga oid bitim; investor; yirik kompaniyalar.

Kirish qismi. Mahsulot taqsimlash to'g'risidagi bitim shartnoma - bu davlat (shartnomaning bir tomoni) tadbirkorlik subyektiga (investorga) qaytariladigan asosda va ma'lum vaqt davomida yer qa'ri hududida mineral xom ashyolarni qidirish, izlash, qazib olish bo'yicha eksklyuziv huquqlarni beradigan shartnoma va investor (boshqa shartnoma tarafi) bu ishlarni o'z mablag'i va o'z riski bilan amalga oshirish majburiyatini oladi. Demak bugungi kun talabi mamlakatlar xorijiy investitsiyalarni o'z iqtisodiyotini rivojlantirish uchun asos deb bilishadi bejiz emas. Xorijiy investitsiyalar nafaqat globalashuvning asosiy omili, balki global korporatsiyalarni milliy iqtisodiyotni mustahkamlashda jalb etishdir va bu moliyaviy va iqtisodiy jihatdan muhim rol o'ynaydi. Bu mamlakatlarning ishlab chiqarish jarayonini qo'shimcha kapital bilan ta'minlaydi va iqtisodiy o'sish darajasini oshirishda bevosita ishtirok etadi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda investitsiyalar har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Shu tufayli dunyoning ko'plab rivojlangan davlatlari o'z iqtisodiyotining jadal o'sishiga erishdilar. Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi, birinchi navbatda, mamlakatda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasiga bog'liq. Bu o'z-o'zidan tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun mamlakatda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish zarurligini ko'rsatadi. Va buni tez va samarali amalga oshirishning eng qulay va oson usuli bu iqtisodiyotga investitsiyalarni faol jalb qilish va foydalanishdir ya'ni o'rganilayotgan mavzu o'rni, doirasi mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rni bunda beqiyosdir.

2020-yil 1-yanvardan boshlab kuchga kirgan yangi tahrirdagi “Soliq kodeksi” da yuqoridagi masala dolzarbligi o'z isbotini topdi. Bu o'z navbatida xorijiy investorlarga,

yuridik va jismoniy shaxslarga soliq solish tartibida yuz bergan asosiy o'zgarishlar haqida xabar berdi. [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "Investitsiya" atamasi lotin tilidagi "invest" so'zidan kelib chiqqan bo'lib "qo'yish", "mablag'ni safarbar etish", "kapital qo'yilmasi" ma'nosini beradi.[12] Keng ma'noda investitsiya, mablag'ni ko'paytirib va qaytarib olish maqsadida safarbar etishni bildiradi. Ko'pgina hollarda "investitsiya" tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar tarzida ta'riflanadi. [13] Investitsiya deganda barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati obyektlariga yo'naltirilib daromad keltirishi yoki biror-bir ijobiy samaraga erishishi zarur. Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad daromad olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishishdir.

Investitsiyalar kapital qo'yilmalar shaklida ham amalga oshiriladi, hamda o'zidagi yangi qurilishlarga, kengaytirishga, rekonstruksiya va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni texnik qayta jihozlashga, uskunalar, inventarlar, loyihaviy mahsulotlar sotib olishga sarf-xarajatlarni mujassamlashtiradi. Iqtisodiy fanlar va amaliyot "investitsiya" va "kapital qo'yilma" terminlari bir xil tushuncha emasligini, ya'ni sinonim so'zlar emasligini ta'kidlaydi.

Investitsiyalar kapital qo'yilmaga nisbatan keng mazmunli, qamrovli tushunchadir. G'arb adabiyotlarida investitsiyalar borasida so'z yuritilganda asosiy e'tibor fond bozoriga qaratiladi, chunki rivojlangan mamlakatlarda investitsiyalar asosan qimmatli qog'ozlar yordamida amalga oshiriladi.

Investitsiya tushunchasi yagona va to'liq tushuncha berishlik uchun anchagina keng bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiy fanning turli qismlarida va amaliy faoliyatning turli sohalarida investitsiya mazmuni o'zining xususiyatlariga ega. Investitsiyalar – joriy davrda iste'mol qilinmagan va iqtisodiyotda kapital o'sishini ta'minlovchi YAIM ning bir qismidir.

Investitsiyalarga aniq va ravshan ta'rif berish hamda ularning mulkiy shakllari, kapital qo'yilmalar, kapital, kredit tushunchalarining farqlarini ochib berish zaruriyati paydo bo'ldi. Zamonaviy moliya nazariyasi masalalari J.Fon. Neyman, [2] O.Morgenshtern,[3] G.Markovits, [4] J.Tobin, [5] V. Sharp,[6] F.Modilyani, M.Miller va boshqalarning asarlarida rivojlantirilgan [7].

Moliya nazariyasida investitsiya deganda real yoki moliyaviy aktivlarni olishni tushuniladi, ya'ni bugungi sarflarning maqsadi kelajakda daromad olish bo'lib hisoblanadi.

Boshqacha so'z bilan aytganda, investitsiyalar – muayyan qiymatni, bo'lishi noaniqroq bo'lgan kelajak qiymatga almashishdir U.Sharp investitsiyalarni real va moliyaviy investitsiyalarga ajratib, ularga quyidagicha ta'rif beradi: «Real investitsiyalar asosan moddiy aktivlarga (yer, uskunalar, zavodlar) qilingan investitsiyalardir [11].

Moliyaviy investitsiyalar bu qog'ozda bitilgan shartnomalardir. Bularga oddiy aksiyalar va obligatsiyalar kiradi. Rivojlanayotgan iqtisodiyotda investitsiyalarning asosiy qismi real investitsiyalarga tegishlidir. Rivojlangan iqtisodiyotda esa investitsiyalarning asosiy qismi moliyaviy investitsiyalash institutlarining keng miqyosida rivojlanishi real investitsiyalarning o'sishiga sababchi bo'ladi. Investitsiyalarning bu ikki shakli bir-biri bilan raqobatlashuvchi emas, balki bir-birini to'ldiruvchidir» [8].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada quyidagi metod va usullar qo'llanildi: deduksion va induksion belgilash, mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha faktor tahlili va olimlar fikrlari o'rganildi.

Tahlil va natijalar. Yuqorida aytib o'tilganidek investitsiyalarga bejiz biz urg'u qaratmadi chunki, mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyatga soliq solishning o'ziga xosligi aynan investitsiyalarni jalb etishda ko'rinadi.

2019-yilda yangi tahrir qilingan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining butun boshli "69-bob. Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyatga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari" deb nomlanishi bejiz emas, yana bir isboti ushbu o'zgarishlarning oqibatida 2022- yilning yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning 61,1 % i yoki 30,6 trln. so'mi jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 38,9 % yoki 19,5 trln. so'm moliyalashtirildi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2021- yilning mos davridagi ulushiga nisbatan 5,1 % punktga kamayib, 6,9 % ni yoki 3,5 trln. so'mni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 46,6 trln. so'm yoki jami investitsiyalarning 93,1 % investitsiyalari o'zlashtirilib, 2021- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 5,1 % punktga ko'paydi.

Ta'kidlash joizki, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning asosiy qismi korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirildi. Bu, albatta, xo'jalik yurituvchi subyektlar birinchi navbatda ichki resurslaridan foydalangan holda o'z faoliyatini kengaytirish yoki modernizatsiya qilishni afzal ko'rishini isbotlaydi.

Keyingi yillarda Respublikada keng ko'lamli qulay investitsiya muhitini yaratish, xorijiy investitsiyalarni, xususan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish va o'zlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Natijada to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan 8,0 trln. so'm investitsiyalar, yoki 2021-yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 4,0 % punktga ko'paygan holda jami investitsiyalardagi ulushi 15,9 % ga teng investitsiyalar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlarini moliyalashtirish manbalari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan kuzatilib, o'tgan 2021- yilning mos davriga nisbatan 2,2-martga ko'paydi.

O'zbekiston Respublikasining neft-gaz tarmog'ini rivojlantirish, neft va gazga boy istiqbolli mintaqalarda qidiruv va razvedka ishlarini jadal olib borishda bevosita xorijiy sarmoyalarni keng ko'lamda jalb etish g'oyat muhim ustuvor yo'nalish bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to'g'risida»gi qonuniga asosan MTB shartnoma hisoblanib, unga muvofiq O'zbekiston Respublikasi haq olish asosida va muayyan muddatga chet ellik investorga bitimda ko'rsatilgan yer qa'ri uchastkasida konlarni aniqlash, qidirish va foydali qazilmalarni kavlab olish hamda shular bilan bog'liq bo'lgan ishlarni olib borish uchun mutlaq huquqlar beradi. Investor esa o'z mablag'lari hisobiga va tavakkal qilib mazkur ishlarni amalga oshirish majburiyatini oladi.

O‘zbekiston Respublikasi nomidan vakolatli organ, hamda o‘z mablag‘lari, qarz mablag‘lari evaziga investitsiya kiritayotgan chet ellik investor MTB ishtirokchilari hisoblanadi.

Xorijiy investorlarga MTB shartlari asosida foydalanishga quyidagi talablarga javob beradigan yer maydonlari beriladi:

- hali isbotlangan foydali qazilma zaxiralari yo‘q bo‘lgan;
- geologik-qidiruv ishlari o‘tkazish uchun katta moliyaviy resurslar talab etadigan;
- ilg‘or texnologiyalar va texnika jalb etilishini talab qiladigan yer qa‘rining istiqbolli uchastkalari.

O‘zbekiston Respublikasi tomonidan MTB doirasidagi vazifalar vakolatli davlat organi zimmasiga yuklatiladi. Vakolatli davlat organi vazifalarining bir qismi esa xususiylashtirilishi mumkin bo‘lmagan davlat korxonasi yoki davlat ulushi ellik bir foizdan kamayishi mumkin bo‘lmagan korxonaga – vakil qilingan kompaniya zimmasiga yuklatilishi mumkin. Chet ellik investor tomonidan esa MTB shartlarini bajarish vazifasi investor tomonidan tayinlangan operator-kompaniyaga yuklatiladi. Operator-kompaniya xatti-harakatlari uchun investor o‘z mulki bilan javob beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki u vakolat bergan organ tomonidan MTB imzolangan kundan e‘tiboran besh ish kuni ichida MTBda ko‘rsatilgan yer qa‘ri uchastkalaridan foydalanish huquqini beruvchi litsenziya investorga belgilangan tartibda beriladi.

Qazib olingan (ishlab chiqarilgan) mahsulot davlat bilan investor o‘rtasidagi bitimga muvofiq taqsimlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining dastlabki MTBsi 2001-yili Buyuk Britaniyaning “Trinity Energy Group” tomonidan neft-gaz loyihalarini amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan “UzPEC” kompaniyasi bilan tuzilgan. [9]

2004-yilning iyun oyida «Qandim-Xauzak-Shodi-Qo‘ng‘irot» investitsiya loyihasi bo‘yicha Rossiyaning “LUKOYL” kompaniyasi hamkorligida MTB imzolandi va shu yilning noyabr oyida kuchga kirdi. Ushbu loyihada “LUKOYL” kompaniyasining ulushi 90%ni, “O‘zbekneftgaz” MXKning ulushi 10%ni tashkil etadi. Bitim 35-yil muddatga tuzilgan. Olinadigan mahsulot taqsimotida davlatning ulushi 50%ni tashkil etadi.

2007-yili Xovuzak uchastkasi hamda 2011-yili Shodi uchastkalarida gaz qazib olishning yo‘lga qo‘yilishi ushbu bitim natijasidir. 2013-yili ushbu uchastkalarda 3,74 milliard kubometr gaz va 13,2 ming tonna gaz kondensati qazib olindi.[10], [14]

2007-yil 23-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi va “Soyuzneftegaz Vostok Limited” kompaniyasi o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi Janubiy G‘arbiy Hisor va Ustyurt mintaqasi hududlaridagi konlar bo‘yicha MTB 36-yil muddatga imzolandi va shu yilning aprel oyida kuchga kirdi. Ushbu loyiha asosida O‘zbekiston Respublikasining Janubi-G‘arbiy Hisor mintaqasidagi Odamtosh, Gumbuloq va Jarquduq-Yangi Qizilcha gaz kondensati konlarini o‘zlashtirish obyektlari qurilishini amalga oshirish rejalashtirilgan edi.

Xulosa va takliflar. O‘zbekistonning iqtisodiy o‘rinishini ta‘minlashda neft-gaz sohasining ahamiyati juda yuqoridir. Shu bilan birga, ushbu tarmoq rivojlanishida to‘siq bo‘layotgan muammolardan biri bo‘lib soha boshqaruv tizimida yo‘l qo‘yilayotgan

kamchiliklar hisoblanadi. Bular boshqaruv funksiyalarining takrorlanishida, resurslardan oqilona foydalanilmayotganlikda va shu kabilarda namoyon bo'lyapti. Ushbu sohaning istiqbolli rivojlanishi uchun neft va gaz konlarini qidirish, razvedka qilish ishlarining zamonaviy usullarini qo'llash, sohaga ekologik jihatdan xavfsiz texnologiyalarni tatbiq etish, kadrlar malakasini oshirish kabi vazifalarni amalga oshirish zarur.

Yuqorida barcha sanab o'tilgan neft va gaz konlarini qidirish va razvedka qilish ishlarini amalga oshiruvchi xorijiy kompaniyalar, shuningdek, ular tomonidan jalb etiladigan xorijiy pudrat va yordamchi pudrat tashkilotlariga O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi imtiyozlar berilgan:

- geologiya-razvedka ishlarini o'tkazish davrida maqsadli davlat jamg'armalariga barcha turdagi soliqlar va majburiy ajratmalarni;
- qidirish, razvedka qilish va boshqa tegishli ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mashina uskunalarni, moddiy-texnika resurslari va xizmatlarni import qilish chog'ida bojxona to'lovlarini (bojxonada rasmiylashtiriladigan ishlar uchun olinadigan yig'imlardan tashqari) to'lashdan ozod etilgan.

Neft va gaz konlarini qidirish va razvedka qilish ishlarini amalga oshirgan xorijiy kompaniyalar ishtirokida tashkil etilgan neft va gaz qazib chiqaruvchi qo'shma korxonalar esa neft yoki gaz qazib olinishidan boshlab yetti yil muddatga foyda solig'i to'lashdan ozod qilingan. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasida neft va gaz konlarini qidirish, razvedka qilish hamda qazib chiqarish bilan shug'ullanuvchi xorijiy kompaniyalarga qo'shimcha imtiyozlar va preferensiyalar berilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Soliq kodeksi" (yangi tahriri) , 2019-yil 30-dekabr.
2. ТАШПУЛАТОВ, А. У., & ФОЗИЛОВ, А. Н. (2021). БЮЛЛЕТЕНЬ НАУКИ И ПРАКТИКИ. БЮЛЛЕТЕНЬ НАУКИ И ПРАКТИКИ Учредители: Овечкина Елена Сергеевна, 7(11), 254-261.
3. Эрматов, А. А. (2019). Важность аудита в управлении риском предприятия в период перехода к цифровой экономике. Проблемы современной науки и образования, (12-1 (145)), 45-51.
4. Муминова, Э. А., Кундузова, К. И., & Умаралиев, З. Б. (2018). Модернизации экономики и инновационного развития узбекистана. In Научно-Технический Прогресс: Социальные, Технические И Общественные Факторы (pp. 194-198).
5. Атабаева, З. А. (2021). Оценка Эффективности Планируемых Инвестиционных Проектов. Central Asian Journal Of Innovations On Tourism Management And Finance, 2(12), 51-56.
6. Исомитдинова, Г. К. (2022, May). ИНОСТРАННЫЕ ИНВЕСТИЦИИ-ОСНОВА РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ. In International Conference on Research Identity, Value and Ethics (pp. 202-205).
7. Kurbonaliyevna, I. G. (2022). TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING MILLIY IQTISODIYOT UCHUN AHAMIYATI. ZAMONAVIY TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLARI, 1, 271-275.

8. Темиркулов, А. А. (2019). Государственное управление инвестиционной деятельностью. Проблемы современной науки и образования, (12-2 (145)), 97-101.
9. Давлятшаев, А. А. (2020). НЕОБХОДИМОСТЬ ПРОВЕДЕНИЯ АНАЛИЗА РЕГИОНАЛЬНЫХ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ. Национальная ассоциация ученых, (55-2 (55)), 28-32.
10. Akbaralievich, P. E. A. (2021). Theoretical Bases Of The Organization Of Private Capital Accounting In The Republic Of Uzbekistan. EFFLATOUNIA-Multidisciplinary Journal, 5(2).
11. Tohirovich, Q. N. (2021). XALQARO MOLIYAVIY HISOB STANDARTLARIGA O 'TISH DOLZARBLIGI. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 1(2), 56-64.
12. Qudbiyev, N. T., Qudbiyeva, G. A. Q., & Abduraximov, B. U. O. (2022). LOGISTIKADA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI. Scientific progress, 3(1), 133-142.
13. Qudbiyev, N. T., Axmadaliyeva, Z. A., & No, D. M. O. G. L. (2022). SOLIQ YUKINING BIZNES UCHUN AHAMIYATI. Scientific progress, 3(3), 699-708.
14. <https://lukoil.ru/uz/Company/BusinessOperation/GeographicReach/Asia/LU> KOILinUzbekistan

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

